



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY TALQINI

Rustamov Akram Saidovich

Toshkent gumanitar fanlar universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt tushunchasining nazariy asoslari va uning falsafiy talqini tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning shakllanish jarayoni, inson tafakkuri bilan o'zaro aloqasi hamda ong va idrok muammolari doirasida yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt rivojlanishining axloqiy, epistemologik va ontologik jihatlarini yoritilib, uning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektni kompleks ilmiy fenomen sifatida tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, falsafa, ong, tafakkur, axborot, texnologiya, epistemologiya, ontologiya, axloq.

КОНЦЕПЦИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЕГО ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Рустамов Акрам Саидович

Ташкентский университет гуманитарных наук, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы понятия искусственного интеллекта и его философская интерпретация. Рассматриваются процессы формирования искусственного интеллекта, его взаимосвязь с человеческим мышлением, а также проблемы сознания и познания. Особое внимание уделяется этическим, эпистемологическим и онтологическим аспектам развития искусственного интеллекта и его роли в современном обществе. Результаты исследования способствуют комплексному пониманию искусственного интеллекта как научного феномена.

Ключевые слова: искусственный интеллект, философия, сознание, мышление, информация, технология, эпистемология, онтология, этика.

THE CONCEPT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ITS PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Rustamov Akram Saidovich

Tashkent University of Humanities, Senior Lecturer

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of artificial intelligence and its philosophical interpretation. It examines the formation of artificial intelligence, its relationship with human cognition, and the problems of consciousness and understanding. Special attention is given to the ethical, epistemological, and ontological aspects of artificial intelligence development and its role in modern society. The findings contribute to a comprehensive understanding of artificial intelligence as a complex scientific phenomenon.

Keywords: artificial intelligence, philosophy, consciousness, cognition, information, technology, epistemology, ontology, ethics.

XXI asrda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, katta

ma'lumotlar (big data), mashinaviy o'rganish (machine learning) va sun'iy intellekt (artificial intelligence) kabi innovatsion yo'nalishlar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt nafaqat texnologik muammo sifatida, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt tushunchasi odatda insonning aqliy faoliyatiga xos bo'lgan tizimli-fikrlash, o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali modellashirish va amalga oshirishni anglatadi. Biroq mazkur tushuncha faqat texnologik mazmun bilan cheklanmaydi. U inson ongining tabiati, bilish jarayoni, intellekt mohiyati, ong va materiya o'rtasidagi munosabat kabi fundamental falsafiy masalalarni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda sun'iy intellektning rivojlanishi bilan bog'liq holda bir qator dolzarb falsafiy savollar yuzaga kelmoqda: mashina haqiqatan ham fikrlay oladimi? Sun'iy tizimlarda ong yoki o'zlik hissi shakllanishi mumkinmi? Inson va mashina intellekti o'rtasidagi chegaralar qayerda? Ushbu savollar gnoseologiya (bilish nazariyasi), ontologiya (borliq haqidagi ta'limot), aksiologiya (qadriyatlar nazariyasi) hamda etik (axloqiy) muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, sun'iy intellektning keng joriy etilishi jamiyatda yangi ijtimoiy munosabatlar, axloqiy dilemmalar va shuningdek, mas'uliyat muammolarini keltirib chiqarmoqda. Masalan, avtomatlashtirilgan qarorlar uchun javobgarlik kim zimmasiga yuklanadi, sun'iy intellekt tizimlarining inson huquqlari va erkinliklariga ta'siri qanday bo'ladi, degan savollar bugungi kunda nafaqat olimlar, balki siyosatchilar va keng jamoatchilikni ham o'ylantirmoqda. Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellektni faqat texnik vosita sifatida emas, balki insoniyat tafakkuri va jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab falsafiy fenomen sifatida o'rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bois, sun'iy intellekt tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda uning falsafiy talqinlarini tizimli ravishda tahlil qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. "BMTning 2019-yildagi texnologiya tendensiyalari-Sun'iy intellect" yig'ilishida nazariyadan amaliy qo'llanishga o'tayotgan sun'iy intellekt bilan bog'liq ixtirolar namoyish etildi. Sun'iy intellekt sohasidagi o'zgarishlarni tezlashtirishga yordam bergan bir qator omillar mavjudligi aytib o'tildi. Uchrashuvda BIMT Bosh deirektori Frensis Garri "Sun'iy intellekt hayot tarzimiz va ishimizni o'zgartirish orqali dunyoga chuqur ta'sir ko'rsatadigan yangi raqamli chegaradir" deya ta'kidlab, BIMT muvozanatli va samarali xalqaro intellektual mulk tizimini rivojlantirishga rahbarlik qilishini va barchaning manfaati uchun innovatsiyalar va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi [1].

Sun'iy intellektni ilmiy yo'nalish sifatida rivojlantirish faqat EHM yaratilgandan keyin mumkin bo'lgan. Bu XX asrning-yillarida sodir bo'lgan. Bu vaqtda N.Viner (1894-1964) yangi fan kibernetika bo'yicha o'zining asosiy ishlarini yaratadi. Sun'iy intellekt atamasi 1956 Stenford universiteti (AQSh) dagi xuddi shunday nomdagi seminarda taklif qilingan. Seminar hisoblash emas, balki mantiqiy vazifalarni ishlab chiqishga mo'ljallangan. Sun'iy intellektni fanning mustaqil sohasi deb tan olingandan keyin tezda uni ikkkita asosiy yo'nalishlarga: neyrokibernetika va "qora quti" kibernetikasiga bo'linishi sodir bo'lgan. Va faqat hozirgi vaqtda bu qismlarni yana bitta butuncha birlashishining tendentsiyasi sezilmoqda[2].

Sun'iy intellekt – inson tomonidan yaratilgan, asta-sekin mustaqil fikrlashga yaqin qobiliyat namoyon etayotgan tizim. Ya'ni, bu haqda gap ketganda, "Qanday ishlaydi?" emas, "Qarori axloqan to'g'rimi?" degan savol tobora dolzarblik kasb etmoqda.

Bugun insoniyat o'zining eng buyuk ixtirosi bilan axloqiy to'qnashuv yoqasida turibdi. Agar robot sudya aybni isbotlasa, qaror adolatli bo'ladimi? Yoki tibbiy algoritmi noto'g'ri tashxis qo'ysa, bemor hayoti uchun kim mas'ul? Inson har bir qarorini axloqiy qadriyatga tayangan holda qabul qiladi: yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, foydali-zararli. Sun'iy intellekt esa bunday qadriyatni matematika yordamida o'rganadi. Afsuski, axloq raqam bilan o'lchanmaydi. Masalan, muxtor avtomobil (haydovchisiz mashina) ikki tanlov – bir tomonda piyoda, yonda to'siq oldida qolsa, qaysi yo'lni tanlaydi? Algoritm "imkon darajasida zararni kamaytirish"ga urinar, lekin bu qaror axloqiy jihatdan inson qadriyatiga mos keladimi? Shu kabi savollar bugun nafaqat

muhandislar, balki faylasuflar va huquqshunoslar o'rtasida ham eng murakkab mavzuga aylangan. Ko'pchilik sun'iy intellektni "xolis" hisoblaydi. Aslida, mashina inson yaratgan ma'lumotga tayanadi. Agar o'sha axborot jamiyatdagi gender, irq, ijtimoiy tabaqa ko'rinishidagi tarafkashlikni aks ettirsa, algoritm ham shunday qaror chiqaradi. Masalan, ayrim Yevropa kompaniyalarida ishga qabul qilishda qo'llanadigan AI tizimi erkak nomzodni afzal ko'rgan. Sababi, o'sha tizim ilgari faqat erkaklar haqidagi ma'lumot bilan "o'qitilgan" ekan. Demak, sun'iy idrok ham inson kabi ong osti tarafkashligini takrorlaydi. Shundan so'ng Yevropa Komissiyasi 2019 yil quyidagi uch tamoyilga asoslangan "Etik sun'iy intellekt tamoyili" [3]ni e'lon qildi:

Adolat (Fairness) – algoritm har kim uchun teng imkoniyatni ta'minlashi kerak.

Shaffoflik (Transparency) – tizim qanday qarorga kelganini tushuntira olishi lozim.

Javobgarlik (Accountability) – qaror uchun mas'ul shaxs yoki tashkilot aniq bo'lishi shart.

Bu tamoyillar hozir butun dunyo bo'ylab muhokama qilinayotgan "AI etikasi" konsepsiyasig asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda eng muhim etik tamoyil sifatida "Inson nazorati ostidagi AI" konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Buning ma'nosi shuki, sun'iy intellekt hech qachon insonning asosiy qaror qabul qilish vakolatini to'liq egallamasligi kerak. Mashina yordamchi bo'lishi mumkin, lekin qaror uchun javobgarlik har doim inson zimmasida qoladi. Bu tamoyil tibbiyotdan tortib, sud tizimigacha barcha sohalarda AI qo'llanishining asosiy mezon bo'lishi zarur. Zero, texnologiya xatoga yo'l qo'yganda, temirni "kechirish" yoki "tuzatish" imkoni faqat insoniyat qo'lida bo'ladi.

Sun'iy intellekt (SI) tushunchasi XX asr o'rtalarida shakllanib, dastlab matematik va mantiqiy modellarga asoslangan holda talqin etilgan bo'lib, ushbu tushunchaning nazariy asoslari Alan Turing tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u mashinalarning inson tafakkuriga o'xshash faoliyatni amalga oshira olishini ilmiy jihatdan asoslab bergan[4]. Turing tomonidan taklif etilgan test sun'iy intellektning inson aqli bilan qiyosiy baholanishida muhim mezon sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt insonning intellektual faoliyatini modellashtiruvchi tizim sifatida izohlanadi. Xususan, Stuart Russell va Peter Norvig sun'iy intellektni "aqli agentlar yaratish jarayoni" sifatida ta'riflaydi, ya'ni bu tizimlar muhitni idrok etadi va maqsadga yo'naltirilgan qarorlar qabul qiladi[5]. Sun'iy intellektning falsafiy talqini ong va tafakkur muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. John Searle tomonidan ilgari surilgan "Xitoy xonasi" argumenti shuni ko'rsatadiki, mashinalar tashqi jihatdan aqli ko'rinsada, ular haqiqiy ongga ega emas[6]. Ushbu yondashuv sun'iy intellektning chegaralari va inson tafakkuridan farqini ochib berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy falsafiy qarashlarda sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida talqin qilinmoqda. Nick Bostrom sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyat uchun ulkan imkoniyatlar bilan birga global xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi[7]. Shu sababli, SI rivojini nafaqat texnologik, balki axloqiy va falsafiy jihatdan ham tartibga solish zarur. Axborot falsafasi nuqtai nazaridan esa, Luciano Floridi sun'iy intellektni axborot muhitining ajralmas elementi sifatida ko'rib, uni inson va raqamli dunyo o'rtasidagi o'zaro ta'sir mahsuli deb baholaydi[8]. Bu yondashuv SI ni faqat texnik hodisa emas, balki kengroq ontologik va epistemologik fenomen sifatida talqin etishga imkon beradi.

Xulosa. Sun'iy intellekt zamonaviy ilm-fan va texnologiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat texnik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan murakkab fenomen hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi inson tafakkurini modellashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu jarayon ong, idrok va tafakkur mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt tushunchasi dastlab mantiqiy va algoritmik yondashuvlar asosida shakllangan bo'lsa, bugungi kunda u kengroq – ontologik, epistemologik va axloqiy kontekstda talqin etilmoqda. Ayniqsa, mashinalarning haqiqiy ongga egaligi yoki faqat tashqi faoliyatni imitatsiya qilishi haqidagi bahslar ushbu sohaning dolzarb falsafiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, sun'iy intellektning jadal rivojlanishi

insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf va mas'uliyat masalalarini ham qo'ymoqda. Shu bois, uning rivojlanishini samarali boshqarish, etik me'yorlar asosida tartibga solish hamda inson manfaatlariga xizmat qiladigan yo'nalishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, sun'iy intellektni o'rganish nafaqat texnologik taraqqiyot, balki insoniyatning o'z mohiyatini anglash jarayonida ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida ushbu yo'nalishda kompleks va tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Angeles J. Fundamentals of Robotic Mechanical Systems Theory, Methods, and Algorithms. -VerlagNew York, Inc., 2003. 545 p.
2. Yusupbekov N. R. Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish. Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-572 b.
3. Musulmon Ziyoy. Sun'iy intellekt: axloqiy va huquqiy muammo. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 23.10.2025. URL: https://uza.uz/oz/posts/suniy-intellekt-axloqiy-va-huquqiy-muammo_774856
4. Turing A. M. Computing Machinery and Intelligence. Mind. – 1950.
5. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson, 2021.
6. Searle J. Minds, Brains, and Programs. Behavioral and Brain Sciences. 1980
7. Bostrom N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. – Oxford University Press, 2014
8. Floridi L. *The Philosophy of Information*. – Oxford University Press, 2011